



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oiss>

COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY WITHIN THE FRAMEWORK OF THE TURKISH STATE ORGANIZATION

Shukurullo Kh. Khusanov

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: eschasovshukurulloh@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkish states, social and cultural cooperation, cooperation, agreements in the field of education.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article is devoted to issues such as cultural, social, trade relations and developing policies of the Turkish-speaking countries since the establishment of the Organization of Turkic States. This article examines the role of the Organization of Turkic States in the development of cultural and educational exchanges.

TURKIY DAVLARLAT TASHKILOTI DOIRASIDA O'ZBEKISTON VA TURKIYA HAMKORLIGI

Shukurullo X. Xusanov

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universitet

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: xusanovshukurulloh@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiy davlatlar, ijtimoiy madaniy hamkorlik, hamkorliklar, ta'lim sohasida kelishuvlar.

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiy Davlatlar Tashkilotining tashkil tpganidan buyon turkey tilda so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniy, ijtimoiy, savdo aloqalari hamda rivojlanib borayotgan har qanday yo'nalishdagi siyosati kabi masalalrغا bag'ishlangan. Ushbu maqolada Turkiy Davlatlar Tashkiloti madaniy va ma'rifiy almashinuvlarni rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В РАМКАХ ТУРЕЦКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Шукурулло Х.Хусанов

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: eschasovshukurulloh@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: турецкие государства, социальное и культурное сотрудничество, сотрудничество, соглашения в сфере образования.

Аннотация: Данная статья посвящена таким вопросам, как культурные, социальные, торговые отношения и развитие политики тюркоязычных стран с момента создания Организации тюркских государств. В данной статье рассматривается роль Организации тюркских государств в развитии культурных и образовательных обменов.

KIRISH

Turkiy Davlatlar Tashkiloti tashkil topganidan buyon turkiy tilli davlatlar hamjihatlikda Yevroossiyo mintaqasida birgalikda yakdil kuch bo‘lgan holda o‘z qudratini oshirib bormoqda. Ushbu maqola dolzarbligi hozirda turkiy tilli mamlakatlarni o‘zida jamlagan Turkiy Davlatlar Tashkiloti haqida ma’lumotlarni ochib berish va turkiy tilli mamlakatlarning Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida olib borilayotgan va olib boriladigan ba’zi hamkorliklarini o‘rganishga doir.

Ushbu maqolada TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIning ichki tuzilishiga e’tibor berildi va tashkilotni qanday sohalarda ish olib borilishi haqida bayon etildi. Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) haqida va u qanday tashkilot?

ASOSIY QISM

Turkiy Davlatlar Tashkiloti – Turkiy tilda so‘zlashuvchi davlatlar tomonidan 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida asos solingan. Turkiy Davlatlar Tashkilotining kelib chiqishini Qozog‘iston Respublikasining Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev tomonidan 2006-yilda ilgari surilgan turkiy tilli davlatlarni birlashtirgan ko‘p tomonlama platformaga asos solgan istiqbolli taklifiga borib taqaladi.

Bu taklif 2009-yil 3-oktabrda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining tashkil etilishini rasmiylashtirgan, keyinchalik Turkiy kengashga aylangan Naxchivan bitimining imzolanishi bilan yakunlanadi. Dastlab tashkilot Turkiy tilda so‘zlashuvchi mamlakatlar hamkorlik tashkiloti yoki Turkiy Kengash deb atalgan. 2021-yil 12-noyabr kuni Istanbul shahrida Demokratiya va Erkinliklar orolida bo‘lib o‘tgan Turkiy Davlatlar Tashkilotining 8-Istanbul sammitida tashkilot nomi Turkiy Davlatlar Tashkiloti deb o‘zgartirildi va Turkmaniston

tashkilotga kuzatuvchi davlat sifatida kiritiladi. Turkmaniston tashqi siyosatda yopiq yakkalik siyosati bilan tashqi siyosat olib borsada o‘z madaniyati, tili bilan turkey xalqlar bilan bo‘lishni ma’qul ko‘radi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti(TDT) – 2012-yilda Bishkekda bo‘lib o‘tgan 2-sammitda uning rasmiy bayrog‘ining qabul qilindi. Bu tashkilot ta’sischi a’zo davlatlarning birligi va umumiy merosi ramzidir. Bayroq va gerbi ham alohida ahamiyatga molik shaklda yaratilgan hisoblanadi. TDTbayrog‘i va gerbida aks ettirilgan ramzlar TDT ga asos solingan davlatlarning ramzlaridan mujassamlashtirilgan. Bayroq va gerbning markazidan joy olgan Oy - Turkiya Respublikasining ramzi hisoblanib uning bayrog‘idan nusxa olingan. Markazida joylashgan Yulduz -- Ozarbayjon Respublikasining bayrog‘i ramzidan nusxa olingan. Markazida joylashgan Quyosh - Qirg‘iziston Respublikasining bayrog‘i ramzidan nusxa olingan. TDT bayrog‘i va gerbida aks ettirilgan, ramzlarini butunlay qoplagan Moviy rang - Qozog‘iston Respublikasi ramzi hisoblangan bayroqdan nusxa olingan hisoblanadi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti(TDT) – Turkiyzabon davlatlardan tashkil topgan xalqaro tashkilot. Tashkilotning asosiy maqsadi: turkiy tilda so‘zlashuvchi davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, mintaqaviy va global miqyosda ularning umumiy manfaatlarini ilgari surish, tomonlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va do‘stlikni mustahkamlash, tashqi siyosat masalalari bo‘yicha umumiy pozitsiyalarni ishlab chiqish, xalqaro terrorizm, separatizm, ekstremizm va transchegaraviy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirish, umumiy manfaatlarga ega bo‘lgan barcha sohalarda samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikka ko‘maklashish, savdo va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama va muvozanatli iqtisodiy o‘sishga, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga intilish, fan, texnika, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalarida o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, ommaviy axborot vositalari va boshqa aloqa vositalarining o‘zaro hamkorligini rag‘batlantirish, a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va integratsiyani mustahkamlash, tegishli huquqiy axborot almashish va huquqiy hamkorlikni kengaytirish kabilar tashkilotning asosiy va bosh maqsadlaridan bo‘lib kelmoqda.

**TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIning shiori: "Biz birlikte daha güclüyüz!"
"BIZ BIRGALIKDA KUCHLIROQMIZ!"**

2018-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasi TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI(TDT)ga a’zo bo‘lishi ochiqlandi va 2019-yil 14-sentyabrda Qozog‘iston

Respublikasining Bishkek shahrida o'tkazilgan sammitda O'zbekiston Respublikasi TDT a'zoligiga qabul qilindi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti tukiyzabon davlatlar o'rtasida asosan 20 sohada hamkorliklarni amalga oshiradi va TDT turkiy tilda so'zlashuvchi a'zo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, bojxona, transport, turizm va ta'lim hamkorlik sohalariga jiddiy e'tibor beradi. TDT tashkiloti turkiy davlatlarni zamonaviy dunyoda o'zlashtirilgan madaniyatlarini, ta'lim sifatini standartlarini bir-birlari bilan uyg'unlashtirishni istaydi

va bu sababli ta'lim sohasiga katta ahamiyat berib boradi. Ta'lim sohasida hamkorliklarga nazar solsak turkiy davlatlar o'rtasidagi madaniyat, til va hamdo'stlik Turk Davlatlari Tashkiloti doirasidagi hamkorlikning ustunini tashkil etadi. Bu TDTni boshqa tashkilotlardan ajratib turuvchi muhim vosita hisoblanadi. Tashkilotning Ikkinci sammiti "Ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib bu ham maqola yuqorisida aytilgan fikrning ya'ni ta'lim sohasiga e'tiborning muhimligini aniq ko'rsatkichidir. Turkiy Davlatlar Tashkiloti yosh turk avlodlarining mayjud ta'lim tizimida ishtirok etishiga yordam beradigan maxsus dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida tarmoq masalalari bo'yicha vazirlar yig'ilishlarini tashkil etib kelmoqda. 2010 yildan beri a'zo davlatlar ta'lim vazirlari o'rtasida yetta uchrashuv bo'lib o'tdi. Oxirgi marotaba Ta'lim vazirlarining TDT sammitida yig'ilishi 2023-yil 14-iyun kuni Samarqand shahrida Xalq ta'limi vazirining 7-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Samarqanddagi yig'ilishda vazirlar TDTdoirasida xalqaro musobaqalar va olimpiadalarni tashkil etish, YUNESKOning Toshkent deklaratsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish va maktabgacha ta'lim sohasidagi sheriklik istiqbollari, shuningdek, "Qardosh maktablar" hamkorlik dasturini muhokama qildilar. Uni mustahkamlash va rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan ham umumiy kelishuvga erishildi. Ta'lim vazirlarining navbatdagi yig'ilishi 2024-yilda Ozarbayjon Respublikasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Maqola yuqorisida qayd etilgan "Qardosh maktablar hamkorlik dasturi" atamasini maqolada ta'kidlangan turkiy davlarlar hozirgi muammoli globallashuv davrida bir-birlari bilan yaqin munosabatda bo'lishga, o'zlashtirilgan yangi madaniyatlarini uyg'unlashtirishga intilib kelmoqda deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Misol uchun: Turkiya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi ta'lim va madaniyat sohasidagi yangiliklar kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ikki davlat delegatsiyalari madaniyat ko'rgazmalarini bir-birlariga uzlusiz taqdim etmoqdalar. Madaniyat uylari tashkil etilmoqda. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti, mamlakatimiz elchixonasi hamda Istanbuldagi Bosh konsullik hamkorligida Turkiyaning Bursa shahrida O'zbek tili va madaniyati markazi ochildi. Hattoki har ikki davlatda yashovchi migrantlarga qulayliklar yaratish maqsadida

maktablar tashkil etildi. Madaniyat uyg‘unlashtirishga va eng asosiysi ta’limni yaxshilashga va birlashtirishdagi say harakatlarga oliv ta’lim sohasida har ikki davlatlarning nufuzli Oliy ta’lim dargohlarining ikki tomonlama kelishuvlari bunga yaqqol misol bo‘ladi oladi. Ta’lim sohasidaga hamkorliklardan TİKA rahbari Serkan Kayalar, Turkiya Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Olgan Bekar va Sharqshunoslik Universiteti rektori hurmatli Gulchehra Rixsiyeva bilan birgalikda davom etib kelayotgan hamkorliklar haqida suhbatlashib, TİKA tomonidan tamirlash va jihozlash ishlari amalga oshirilgan Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti Turkshunosllik fakultetining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi Sharqshunoslik Universitetda ochilgan Turkshunosllik fakulteti kelajakda bo‘lajak shaqrshunoslarga turk tilini, turk madaniyatni chuqur o‘rganishga, Turkiya Respublikasi haqida ko‘proq bilimlarga ega bo‘lishiga olib keladi. Bu yetishib chiqajak kadrlar bilan Turkiya Respublikasi bilan Respublikamizning kelajakdagi hamkorlik istiqbollari yanada mustahkamlanishi mumkin.

2024-yil 27-29 fevral kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida Yevroosiyo oliv ta’lim sammiti o‘tkazildi. Ushbu sammitda Andijon davlat pedagogika instituti rektori B.Rasulov boshchiligidagi institut delegatsiyasi ham ishtiroy etdi. Sammit doirasida Turkiyaning bir qator nufuzli universitetlari bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Xususan, Marmara universiteti, Istanbul Aydin universiteti, Ege universiteti, Gazi universiteti va yana ko‘plab Turkiya universitetlari rektorlari bilan ko‘rishib, keng ko‘lamli tadbirlar orqali institutsional hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha shartnomasi imzolanganini ma’lum. Andijon davlat pedagogika instituti rektori B.Rasulov boshchiligidagi institut delegatsiyasi Turkiyaning yana bir nufuzli oliygohi Karabuk universitetida ham bo‘lib, universitet rektori professor Fatih Kirişik bilan uchrashdi. O‘zaro muloqot davomida ikki OTM rahbarlari o‘qituvchilar malakasini oshirish, qo‘shma ta’limda hamkorlik loyihasini amalga oshirish, kafedralar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, aniq va tabiiy fanlarni sohasida ilmiy konferensiyalar, metodik hamda uslubiy jihatdan hamkorlik qilish, texnologik ta’limni yanada rivojlantirish bo‘yicha muzokaralar olib borilib, hamkorlik shartnomasi imzolanganini ma’lum.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti 8-sammitda qabul qilingan “Turkiy dunyo nigohi – 2040” strategik hujjatida tashkilotning asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilab, iqtisodiy integratsiya orqali farovon jamiyatlar yaratish muhimligi ta’kidlangan. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va o‘zaro savdo hajmidir. Iqtisodiy rivojlanish mintaqadagi farovonlik va

barqarorlikning asosiy omili bo‘lib, a’zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish umumiy maqsadlarga erishish uchun juda muhimdir. Qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, infratuzilmani yaxshilash va taklif etilayotgan Investitsiya jamg‘armasi va Taraqqiyot banki kabi tashabbuslar orqali investitsiyalarni muvofiqlashtirish iqtisodiy o‘sishni oshirishga yordam beradi va Turkiy Davlatlar

Tashkiloti doirasida savdo va investitsiyalar uchun yanada qulay muhit yaratadi. Transport logistika infratuzilmasini takomillashtirish Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlikning yana bir muhim jihatni hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali transport va tranzit tartib-qoidalarini soddalashtirish aloqani kuchaytirishi va a’zo davlatlar o‘rtasidagi savdoni osonlashtirishi mumkin. Raqamli transport yo‘laklarini rivojlanadir, raqamli texnik tartibga solish va temir yo‘l transportini raqamlashtirish aloqalarni sezilarli darajada mustahkamlashi va mintaqqa ichidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Kaspiy dengizi orqali Sharq-G‘arb koridorlari (East-West corridors) kabi tashabbuslar orqali savdodagi iqtisodiy to‘siqlarni bartaraf etish va “Turkiy koridor”ni bosqichma-bosqich amalga oshirish Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi aloqa va savdo imkoniyatlarini yanada oshirishi mumkin. Raqamli transformatsiya Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi raqamli asrda texnologiyalardan foydalanish innovatsiyalar, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. “Turkiy dunyo nighi – 2040” strategik hujjatida telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash va mintaqqa ichidagi aloqani kuchaytirish uchun mintaqalararo raqamli aloqalarni yo‘lga qo‘yish

muhimligi ta’kidlangan. Hujjat 2021-yil 12-noyabrda bo‘lib o‘tgan Turk davlatlari tashkiloti va sammitida davlat rahbarlari tomonidan ma’qullangan. “Turk dunyosiga qarash 2040” a’zo davlatlarning zamonamiz muammolarini alohida va birgalikda hal qilish salohiyatini qo‘llab-quvvatlaydigan asosni ishlab chiqishni maqsad qilgan. Mayjud hamkorlik ruhi har bir a’zo davlatni o‘z jamiyatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy darajasini oshirishning asosiy maqsadiga moslashtirish uchun ishlatiladi. Hamkorlik mexanizmlari va qo‘shma loyihalar, tajribalarni birlashtirish va zarurat tug‘ilganda moddiy va intellektual resurslar bilan ta’minalash orqali Tashkilot hamkorlik va hamjihatlikni oshirish uchun mustahkam va shaffof platforma bo‘ladi. Tashkilot global va mintaqaviy geosiyosiy vogelikni anglagan holda, mintaqaviy va xalqaro tinchlik, barqarorlik va farovonlikka erishish yo‘lida konstruktiv hamkorlik qilishga tayyor barcha hamkorlarni birlashtirishga tayyor bo‘lgan ijobjiy va kuchayib borayotgan qobiliyatli guruh sifatida faoliyat ko‘rsatishga intiladi. Hujjat alohida a’zo davlatlar tomonidan o‘z xalqining ehtiyojlari va intilishlariga xizmat qilish uchun ma’muriy salohiyatini

yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan va birgalikdagi harakatlarga rahbarlik qilishni maqsad qiladi. Shuni inobatga olgan holda, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ijobiy hamkorlik qilish tashkilotning asosiy harakat rejasini tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlik rivojlanishi va mintaqadagi tashkilot sifatida turkiy tilli davlatlarning tashkilot qoshida teng huquqliligining ortib borishi juda ahamiyatli bu zamonaviy dunyoda muhim rivojlanishdir. Turkiy Davlatlar Tashkiloti turkiy tilli xalqlar o'rtasida madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirish uchun platforma vazifasini o'taydi. Bu mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, shuningdek, a'zo davlatlar o'rtasida qon-qarindoshlik va hurmatni kuchaytirish salohiyatiga ega. Savdo, ta'lim va madaniy kabi sohalarda yaqin hamkorlikni rivojlantirish orqali turkiy davlatlar tashkiloti a'zolarining iqtisodiy rivojlanishi va farovonligiga hissa qo'shishi mumkin. Global siyosiy manzara rivojlanishda davom etar ekan, umumiy muammolarni hal qilish va umumiy manfaatlarni ilgari surishda mintaqaviy hamkorlikning ahamiyati tobora ortib boraveradi va turkiy davlatlar bu masalada birga bo'lishlari ijobiy holat. "Turkiy karidor"ning barpo etilishi esa Markaziy Osiyo mamlakatlari savdo iqtisodiyotiga ijobiy samara ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Organization of Turkic States; <https://www.turkicstates.org/en/organ-izasyon-tarihcesi>
2. Nakhchivan Agreemen; <https://turkicstates.org/assets/dokuman/Nahngi-lizce1.pdf>
3. Gazeta.uz; <https://forms.gle/wXBjsfutge9EF9k16>
4. Dunyo Information Agency; <https://dunyo.info/uz/kultura/v-turcii-otkrylsya-tsentr-uzbekskogo-yazyka-i-kultury>
5. Embassy of Uzbekistan; [@Turkiyadagi_elchixonan](https://www.facebook.com/groups/adpi.uz/permalink/1114593003065750/)
6. TSOUS website;<http://tsuos.uz>
7. AndijanStateUniversitywebsite; <https://m.facebook.com/groups/adpi.uz/permalink/1114593003065750/>